



**AKSIZ SOLIG'I TO'LANADIGAN TOVARLAR VA UALAR UCHUN
BELGILANGAN SOLIQ STAVKALAR TAHLILI.**

Abdurashidov Abdusamat Abdurahmonovich

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

I-bosqich tayanch doktaranti.

Email: aabdurashidovvv@gmail.com

Tel: +998(33) 344 97 61

Annotatsiya: Ushbu tezisda ayni vaqtida O'zbekiston Respublikasida aksiz solig'i to'lanadigan tovarlar va ushbu tovarlar uchun belgilangan soliq stavkalari haqida ma'lumot beriladi, shuningdek aksiz solig'inining O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida tutgan o'rni va ahamiyati haqida alohida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: aksiz solig'i, soliq siyosati, soliq tizimi, soliq stavkalari, soliq bazasi, byudjet daromadlari, aksiz solig'i to'lanadigan maxsulotlar, aksiz solig'i ahamiyati.

Abstract: This thesis provides information about the goods subject to excise tax in the Republic of Uzbekistan and the tax rates established for these goods, as well as the role and importance of excise tax in the tax system of the Republic of Uzbekistan.

Keywords: excise tax, tax policy, tax system, tax rates, tax base, budget revenues, excisable products, the importance of excise tax.

Kirish: Aksiz solig'i davlat byudjetining barqarorligini ta'minlash va ayrim mahsulotlar iste'molini nazorat qilishda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu soliq turi, odatda, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan mahsulotlar, masalan, alkogol, tamaki va boshqa tovarlar uchun mo'ljallangan. Aksiz solig'i o'ziga xos xarakteristikalarga ega bo'lib, iste'molchilarga maqsadli ta'sir ko'rsatib, ularning tanloviiga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli, aksiz solig'i



iqtisodiy va ijtimoiy siyosat vositasi sifatida keng qo'llanilib, davlatga iste'molni tartibga solish va sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirishda yordam beradi.

Aksiz solig'i davlat byudjetiga tushumlar keltiruvchi asosiy soliq turlaridan biri bo'lib, uning hisoblash va to'lash tartiblarini to'g'ri tashkil etish davlat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni vaqtda O'zbekistonda ham aksiz solig'i budjet mablag'larini shakllantirishda juda muhim ahamiyatga ega. 2025-yil holatiga ko'ra O'zbekiston Respublikasida tamaki mahsulotlari, alkogol mahsulotlari, neft mahsulotlari, energetik va tetiklantiruvchi ichimliklar shuningdek, tarkibida shakar yoki boshqa shirinlashtiruvchi yoki xushbo'ylashtiruvchi moddalar mavjud bo'lgan va iste'mol qadog'iga qadoqlangan gazlangan va gazlanmagan ichimliklar hamda shakar uchun to'lanadi. Hozirgi vaqtda aksiz to'lanadigan tovarlar uchun aksiz solig'i stavkasi quyidagicha belgilangan.

Tamaki mahsulotlariga doir soliq stavkalari

| T/r | Tamaki mahsulotlari turlari | Soliq stavkalari | |
|-----|--|---|---|
| | | import qilinganda | ishlab chiqariladigan |
| 1. | Filtrli, filtrsiz sigaretalar, papiroslar, sigarillalar (sigaritlar), bidi, kretek | 2025-yil 1- yanvardan: 330 000 so'm/1 000 dona | 2025-yil 1- yanvardan: 300 000 so'm/1 000 dona |
| | | 2025-yil 1-iyuldan: 340 000 so'm/1 000 dona | |
| 2. | Sigara | 20 000 so'm/1 dona | |
| 3. | Chilim uchun tamaki | 600 000 so'm/kg* | |
| 4. | Chekiladigan, o'rama tamaki | 600 000 so'm/kg | |



| | | |
|----|---|-----------------|
| 5. | Chaynaladigan, hidlanadigan va shimiladigan tamaki | 382 000 so'm/kg |
| 6. | Qizdiriladigan tamaki tayoqchasi, qizdiriladigan tamakili kapsula va tarkibida tamaki mavjud bo'lgan o'xshash tamoyil bilan foydalaniladigan boshqa mahsulotlar | 450 000 so'm/kg |
| 7. | Nikotinli tamakisiz snyus | 154 000 so'm/kg |
| 8. | Tarkibida nikotin mavjud bo'lgan suyuqlik (kartrijlarda, rezervuarlarda va elektron sigaretlarda foydalanish uchun boshqa konteynerlarda)** | 2 000 so'm/ml |

Alkogol mahsulotlariga doir soliq stavkalari

| T/r | Alkogol mahsulotlari turlari | Soliq stavkalari | |
|-----|---|------------------|--|
| | | (1 litr uchun) | |
| 1. | Oziq-ovqat xom ashyosidan rektifikatsiyalangan etil spirti, rektifikatsiyalangan va | 15 000 so'm | |

| | | | |
|----|--|-------------|-------------|
| | efiroaldegidli fraksiyadan texnik etil spirti va etil spirtining boshlang'ich fraksiyasi, shuningdek don distillyati (bundan texnik spirtni olish uchun sarflangan etil spirtining boshlang'ich fraksiyasi mustasno) | | |
| 2. | Aroq, konyak va boshqa alkogol mahsulotlari (aksiz to'lanadigan tovar tarkibidagi suvsiz etil spirtining 1 litri uchun, bundan 3 va 4-bandlar mustasno) | 76 000 so'm | 44 000 so'm |
| 3. | Vino: | | |
| | tabiiy ravishda achitilgan tabiiy vinolar (etyl spirti qo'shilmagan holda) | 14 000 so'm | 5 000 so'm |
| | boshqa vinolar, shu jumladan vermut | 20 000 so'm | 6 000 so'm |
| 4. | Pivo | 6 000 so'm | 2 000 so'm |

**Neft mahsulotlari va boshqa aksiz to'lanadigan tovarlar va
xizmatlarga doir soliq stavkalari**

| T/r | Tovarlar nomi | Soliq stavkalari | |
|-----|--------------------|-------------------------|------------------------|
| | | 2025-yil 1-yanvardan | 2025-yil 1-apreldan |
| 1. | Neft mahsulotlari: | | |

**Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy
ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari**

**Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va
zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari**



| | | | |
|----|---|--|--|
| | AI-80 va undan yuqori benzin | 340 000 so‘m/tonna | 375 000 so‘m/tonna |
| | AI-91 va undan yuqori benzin | 303 000 so‘m/tonna | 335 000 so‘m/tonna |
| | aviakerosin (sintetikdan tashqari) | 271 000 so‘m/tonna | 300 000 so‘m/tonna |
| | dizel yoqilg‘isi (sintetikdan tashqari) | 326 000 so‘m/tonna | 360 000 so‘m/tonna |
| | EKO dizel yoqilg‘isi (sintetikdan tashqari) | 293 000 so‘m/tonna | 325 000 so‘m/tonna |
| | dizel yoki karbyurator (injektor) dvigatellari uchun motor moyi | 461 000 so‘m/tonna | 510 000 so‘m/tonna |
| 2. | Polietilen granulalar | 10% | |
| 3. | Tabiiy gaz | 12% | |
| 4. | Yakuniy iste'molchiga realizatsiya qilinadigan: | | |
| | AI-80 va undan yuqori benzin | 1 litr uchun 476 so‘m/1 tonna uchun 633 000 so‘m | 1 litr uchun 525 so‘m/1 tonna uchun 700 000 so‘m |
| | AI-91 va undan yuqori benzin | 1 litr uchun | 1 litr uchun |

**Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va
zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari**

| | | | |
|-------------------|--|------------------------------------|---------------------------------|
| | | 425 so‘m/1 tonna uchun | 470 so‘m/1 tonna uchun |
| | | 565 000 so‘m | 621 000 so‘m |
| dizel yoqilg‘isi | | 1 litr uchun | 1 litr uchun |
| | | 476 so‘m/1 tonna uchun | 525 so‘m/1 tonna uchun |
| | | 578 000 so‘m | 635 000 so‘m |
| suyultirilgan gaz | | 1 litr uchun | 1 litr uchun |
| | | 476 so‘m/1 tonna uchun | 525 so‘m/1 tonna uchun |
| | | 904 000 so‘m | 1 000 000 so‘m |
| siqilgan gaz | | 1 kub metr uchun 678 so‘m | 1 kub metr uchun 750 so‘m |

**Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va
zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari**



| | | |
|--|---|-------------------------|
| | 5. Xushbo‘ylashtiruvchi yoki rang beruvchi qo‘shimchalarsiz oq shakar | 20% |
| | 6. Tarkibida shakar yoki boshqa shirinlashtiruvchi yoki xushbo‘ylashtiruvchi moddalar mavjud bo‘lgan va iste’mol qadog‘iga qadoqlangan ichimliklar* (bundan energetik va tetiklashtiruvchi ichimliklar mustasno): | |
| | gazlangan | 1 litr uchun 500 so‘m |
| | gazlanmagan | - 1 litr uchun 500 so‘m |
| | Energetik va tetiklashtiruvchi ichimliklar | 1 litr uchun 2 000 so‘m |

Xulosa: Aksiz solig‘i davlat byudjetiga katta daromad keltiruvchi muhim moliyaviy manba bo‘lib, ayni paytda ijtimoiy va iqtisodiy siyosat vositasi sifatida ham ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari aksiz solig‘i stavkasining oshirilishi iste’mol talabi va byudjet tushumlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Jumladan, O‘zbekistonda tamaki va alkogol mahsulotlari uchun soliq stavkalarining yuqoriligi ushbu mahsulotlar iste’molini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu holat jamiyat sog‘lig‘ini yaxshilashda, zaruriy mahsulotlarni nazorat qilishda va davlat byudjetiga daromad tushumlarini oshirishda o‘z ifodasini topadi. Natijalar xalqaro tajribalar bilan taqqoslanganda, O‘zbekistondagi aksiz solig‘i stavkalari nisbatan yuqori ekani ko‘rinadi. Bunday



yuqori soliq stavkalari mamlakatning davlat byudjeti daromadini ko‘paytirish va ijtimoiy siyosatni kuchaytirish uchun qo‘llanilayotgan strategiya ekanligini ko‘rsatadi. Aksiz solig‘ining davlat byudjeti daromadlariga ijobiy ta’sirini hisobga olgan holda, soliq tizimlarini elektronlashtirish va monitoringni kuchaytirish tavsiya etiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro’yxati.

1. Malikov T.S., Jalilov P.T. Budget soliq siyosati: O‘quv qo‘llanma. T.: Akademnashr, 2011.
2. Jo‘rayev A, Safarov G., Meyliyev O. Soliq nazariyasi: O‘quv qo‘llanma. T.: IqtisodMoliya. 2019.
3. Vahobov A, Jo‘rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish: Darslik. T.: Iqtisod-Moliya. 2019.
4. Urazov K.B., Po‘latov M.E. Buxgalteriya hisobi. Darslik. T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi. 2020.
5. Soliq kodeksi (2025)
6. Internet saytlari.